

---

## Fuqarolarning muammo va kamchiliklari o'rganilmoqda



### **Fuqarolarning muammo va kamchiliklari o'rganilmoqda**

Bugun “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalq uchun xizmat qilishi kerak” degan hayotiy tamoyil hayotimizga tobora chuqurroq singib bormoqda. Asosiy masala - xalqimiz ichiga kirib borib, ularga munosib turmush sharoitini yaratib berishdan iborat.

Shu munosabat bilan, Sux tumanida aholi orasidagi ijtimoiy muammolarni o'rganish va ularni ijobiy hal etishga ko'maklashish bo'yicha sektorlar kesimida tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan fuqarolarning qabuli o'tkazilmoqda. Ishchi guruh tarkibida bevosita sektorlar rahbarlari, sektor rahbarining o'rinbosarlari va Respublikadan tashrif buyurgan mutasaddi idoralarning mas'ul vakillari aholini qiynab kelayotgan muammolarini aniqlash, ularni yechilishiga ko'maklashish maqsadida faoliyat olib borishmoqdalar.

-“Men tashkil etilayotgan bunday qabullardan minnatdorman. Chunki murojaatimni ishchi guro'h a'zolari yerda qoldirishmadi. Kuni kecha kuchli shamol tufayli uyimiz tom qismining yarmi yaroqsiz bo'lib qoldi. Uni yopish uchun albatta, shifer kerak va shifer olish uchun tabiiyki, mablag' lozim. Rahmat, ishchi guruh a'zolariga menga shu masalada yaqindan yordam berishdi. Komissiya kumagida uyimizning tom qismini yangi shiferlar bilan yopdik”, - deydi Sharqobod mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi G'ulomjon Nuraliev. Albatta, bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Ishchi guruh a'zosi tuman “Ermulkkadastr” idorasi xodimi Rustam Vohidovning ma'lumotiga ko'ra, bugun yana bitta kam ta'minlangan oilaga un va yog' mahsuloti, uchta oilaga suyultirilgan gaz ballonlari yetkazib berildi.

Darhaqiqat, bugungi kunda tumanimizda yashovchi fuqarolarni qiynayotgan muammolar oz emas. Ularni yechimi barcha mutasaddi rahbarlardan katta mas'uliyat talab etishi tabiiy hol.

Ba'zi bir muammo-kamchiliklar tuman miqyosida hal etilsa, boshqa bir muammolarning yechimi esa, viloyat darajasida yechiladigan muammolar sirasiga kiradi. Shunday muammolar ham borki, ularning yechimi bevosita davlat va hukumat vakolati doirasida hal etilishi mumkin.



Sux tumani aholisini qiynayotgan eng asosiy va azaliy muammo – bu Sux – Rishton yo’li muammosi sanaladi. Aksariyat Suxliklarning fikricha, agar shu yo’l muammosi o’z yechimini topsa, qolgan boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolar o’z-o’zidan yechilib ketaveradi. Chunki tumanda turizmni, tadbirkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar kiritilishi bo’yicha zo’r imkoniyat va sharoitlar bor.

“Men Suxning eng chekka – Qal’acha qishlog’ida yashayman. Ilgari biz bozor-uchar qilish uchun tumanimiz markaziga borib yurmasdik, negaki, Rishton shahriga borib kelish biz uchun o’ngroq, chunki masofa juda yaqin edi. Lekin mana bir necha yildirki, ushbu masala muammoligicha qolmoqda. Bu muammoni tuman yo viloyat rahbarlari yecha olmasliklariklarini ham juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun, Respublikadan kelgan mutasaddi rahbarlardan iltimosimiz shu – Sux – Rishton yo’lini ochish masalasini mo’htaram Yurtboshimizga yetkazsinlar. Biz Prezidentimizga ishonamiz, chunki mo’htaram Shavkat Miromonovich Mirziyoev xalqimiz turmush farovonligi yo’lida ko’p arzilri, asrga tatigulik ishlarni amalga oshirdilar. Agar shu muammo ham yechilsa, bizdan-da baxtli inson yo’q deb uylayman” – deydi Qal’achalik onaxon Bog’iniso Rahmonova.

Bu muammoni hal etish bo’yicha qo’shni Qirg’iziston Respublikasi bilan ikki tomonlama hukumatlararo komissiya tuzilib, bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi, tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi. Hozirda kelisholmagan hududlar bo’yicha muzokaralar olib borilmoqda.

O’z navbatida tuman miqyosidagi sektorlar kesimidagi uchrashuv va fuqarolarni qabul qilish natijalarini tahlil qiladigan bo’lsak, bir kunda jami bo’lib, 11 ta mahalla fuqarolar yig’inida 745 ta xonadonlar o’rganilib, 121 ta ijtimoiy muammolar aniqlandi. Muammolarning asosiy qismini tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bank kreditlari ajratib berish, ish joyi bilan ta’minlash, fuqarolik olish, ichimlik suvi bilan ta’minlash masalalari tashkil etadi.



Ushbu muammolarning deyarli yarmi ishchi guro'hlari a'zolari tomonidan o'rganish jarayonida shu joyning o'zida hal etilishi ta'minlandi. Qolgan ijtimoiy muammolarni qisqa muddat ichida hal etish yuzasidan mutasaddi idora vakillari tomonidan aniq, manzilli ishlar olib borilmoqda.

Zotan, umidlari ishonchga aylanib qolishini istagan fuqarolarning har bir murojaati e'tibor markazida ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Zero har bir murojaat zamirida fuqarolarimizning manfaati mujassam.

**Sux tumani hokimligi Axborot xizmati**

2020-06-07 13:49:15